



O'ZBEKISTONDA TABIATIDA UCHRAYDIGAN TOVUQSIMONLAR AYRIM VAKILLARINING BIOLOGIK VA EKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bo'ranboyeva Sabina Bahodir qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU-Biologiya ta'lim yo'nalishi IV kurs talabasi -

Saydulla Dadayev

Nizomiy nomidagi O'zMPU Biologiya kafedrası professori-

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19395908>


Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ornitofaunasining ajralmas qismi hisoblangan tovuqsimonlar (*Galliformes*) turkumi vakillarining biologik va ekologik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Sirdaryo qirg'ovuli, keklik va bedana kabi turlarning mintaqaviy iqlim sharoitlariga moslashish mexanizmlari, ularning ozuqa zanjiridagi o'rni va turli landshaftlardagi (to'qay, tog' va agrotsenozlar) tarqalish qonuniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada antropogen omillarning ushbu qushlar populyatsiyasiga ta'siri va bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha muhofaza choralari yoritilgan. Olingan natijalar mintaqaviy ekotizimlarni boshqarish va ovchilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tovvuqsimonlar, ornitofauna, Sirdaryo qirg'ovuli, keklik, bedana, ekologik adaptatsiya, to'qayzorlar, bioxilma-xillik, antropogen omil, O'zbekiston tabiati.

Аннотация. В данной статье представлен подробный анализ биологических и экологических особенностей представителей отряда курообразных (*Galliformes*), являющихся неотъемлемой частью орнитофауны Узбекистана. В качестве объектов исследования рассматриваются механизмы адаптации таких видов, как сырдарьинский фазан, keklik и перепел, к региональным климатическим условиям, их роль в пищевых цепях и закономерности распространения в различных ландшафтах (тугаи, горы и агроценозы). Также в статье освещается влияние антропогенных факторов на популяции этих птиц и меры по сохранению биоразнообразия. Полученные результаты служат научной основой для управления региональными экосистемами и устойчивого развития охотничьих хозяйств.

Ключевые слова: Курообразные, орнитофауна, сырдарьинский фазан, keklik, перепел, экологическая адаптация, тугаи, биоразнообразие, антропогенный фактор, природа Узбекистана.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the biological and ecological characteristics of representatives of the order *Galliformes*, which are an integral part of the ornithofauna of Uzbekistan. The research focuses on





the adaptation mechanisms of species such as the Syr Darya pheasant, chukar partridge, and common quail to regional climatic conditions, their functional role in food chains, and distribution patterns across various landscapes (tugai forests, mountains, and agrocenoses). Furthermore, the paper highlights the impact of anthropogenic factors on these bird populations and biodiversity conservation strategies. The findings provide a scientific framework for regional ecosystem management and the sustainable development of hunting management.

Keywords: Galliformes, ornithofauna, Syr Darya pheasant, chukar partridge, common quail, ecological adaptation, tugai forests, biodiversity, anthropogenic factor, nature of Uzbekistan.

Tovuqsimonlar (Galliformes) – yer yuzida keng tarqalgan, oʻrtacha kattalikdagi qushlar boʻlib, asosan oʻsimliklar bilan oziqlanadi. Ularning tanasi mustahkam, oyoqlari toʻmtoq va kuchli boʻlib, yer ostini qazishga moslashgan. Tumshugʻi qattiq va mustahkam, qanotlari qisqa va keng, jigʻildoni va mushakli oshqozoni yaxshi rivojlangan. Ularning toʻrtta barmogʻi mavjud: uchasi oldinga, bittasi orqaga qaraydi. Barmoqlari orasida suzgich pardalari yoʻq. Koʻpchiligi yerda oʻtroq hayot tarzini kechiradi.

Ular oziq sifatida asosan oʻsimliklarning meva, urugʻ va vegetativ qismlarini, shuningdek turli umurtqasiz hayvonlarni isteʼmol qiladi. Tovuqsimonlar poligam qushlardir. Erkaklari koʻpincha yirik va rang-barang boʻladi. Urgʻochilari esa uyasini yer yuzasida chuqurcha shaklida quradi, 2 dan 26 taga qadar tuxum qoʻyadi va ularni inkubatsiya qiladi. Bu qushlar joʻja ochuvchi xususiyatga ega.

Tovuqsimonlar turkumiga kiruvchi qushlardan koʻplab xonaki zotlar ham yetishtiriladi. Koʻpchiligi ovlanadi. Tovuqsimonlar turkumida 250 dan ortiq tur mavjud, MDHda esa 20 turi uchraydi, shulardan Oʻzbekistonda 7 turi yashaydi. Tovuqsimonlardan - Zarafshon qirgʻovuli kenja turi - *Phasianus ssp. zerafschanicus* (Tarnovski, 1891) «Oʻzbekiston Qizil kitobi»ga kiritilgan.

Turkum uchta oilaga boʻlinadi:


1.Choʻptovuqlar (Megapodiidae)

2.Qirgʻovullar (Phasianidae)

3.Qurlar (Tetraonidae)

Oʻzbekiston faunasida **Phasianidae (Qirgʻovullar oilasi)** vakillari asosiy oʻrinni egallaydi. Respublikada tabiiy sharoitda quyidagi turlar uchraydi:

1.Phasianus colchicus (Oddiy qirgʻovul) – Asosan Amudaryo va Sirdaryo vodiylari, Zarafshon vodiysi hamda tugay oʻrmonlarida tarqalgan. Qamishzor va butazor biotoplarni afzal koʻradi.





2. *Perdix perdix* (Kulrang keklik) – Adir va qir hududlarda, qishloq xo'jaligi yerlariga yaqin joylarda uchraydi.

3. *Alectoris chukar* (Chil yoki tog' kekligi) – Tyan-Shan va Hisor-Olay tog' tizmalari, xususan Chatqol, Qurama, Zarafshon tizmalari yon bag'irlarida keng tarqalgan.

4. *Tetraogallus himalayensis* (Ular yoki tog' kurkasi) – Baland tog' mintaqalarida, toshloq va subalp hududlarda yashaydi.

5. *Coturnix coturnix* (Bedana) – Ko'chib yuruvchi tur bo'lib, bahor-yoz mavsumida respublika hududiga keladi; asosan dala va o'tloqlarda uchraydi.

(*Phasianus colchicus*)- Oddiy qirg'ovul (*Phasianus colchicus*) asosan daryo vodiylaridagi to'qayzor hududlarda, shuningdek Tyanshan, Turkiston va Boysun tog' tizimlarida uchraydi. Bu tur MDH hududining ko'plab qismlarida, jumladan Volga bo'yi, Kavkaz, O'rta Osiyo, Qozog'iston va Uzoq Sharqda keng tarqalgan. Ular zich o'rmonlar, butazorlar hamda qamishzorlar orasida yashashni afzal ko'radi.


Qirg'ovullar yirik va ko'rkam qushlar bo'lib, erkaklarining vazni odatda 1,5 kg atrofida bo'ladi. Erkak va urg'ochi individlar tashqi ko'rinishiga ko'ra ancha farqlanadi. Erkak qirg'ovullarning bo'yin, ko'krak va orqa qismi yaltiroq binafsha rangda bo'lib, ko'kraging markaziy qismi qizg'ish tusga ega. Urg'ochilar esa och qo'ng'ir rangli orqa qism va sarg'ish-jigarrang ko'krak bilan ajralib turadi. Ularning oyoqlari patsiz bo'lib, daraxtlarga kamdan-kam qo'nadi.

Uya qurish jarayoni odatda yerda amalga oshiriladi: urg'ochi qush butalar orasida sayoz chuqurcha qazib, uni xas-cho'p va patlar bilan qoplaydi. Tuxum soni 10–18 taga yetadi, inkubatsiya davri esa o'rtacha 25–26 kun davom etadi. Oziqlanishida turli o'simlik urug'lari, mevalar hamda hasharotlar muhim o'rin tutadi. Qirg'ovullar dalalarda qolgan don qoldiqlarini iste'mol qilib, qishloq xo'jaligiga zarar yetkazmaydi, aksincha zararkunanda hasharotlar va begona o't urug'larini yo'qotishda foyda keltiradi.

So'nggi yillarda daryolar o'zanining o'zgarishi va to'qayzorlarning qisqarishi natijasida ularning soni kamayib bormoqda. Shu sababli ayrim hududlarda qirg'ovullarni sun'iy ko'paytirish va muhofaza qilish ishlari olib borilmoqda.

Kakliklar qirg'ovullarga nisbatan kichikroq bo'lib, tana vazni odatda 400–500 g ni tashkil etadi. Ular MDH hududida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa Kavkaz, O'rta Osiyo va Oltoy tog'larida ko'p uchraydi. O'zbekistonda esa Qizilqum va boshqa tog'li hududlarda yashaydi. Kakliklarning pati qo'ng'ir-kulrang rangda bo'lib, bu ularning tabiiy muhitga moslashuvini ta'minlaydi.

Ular ham uyani yerda quradi: sayoz chuqurchaga xas, cho'p va patlar joylashtiriladi. Urg'ochi kakliklar odatda 12–26 ta tuxum qo'yadi va inkubatsiya





muddati taxminan 21 kun davom etadi. Kaklik go'shti mazali va oziq-ovqat sifatida yuqori baholanadi.

Kulrang keklik (*Perdix perdix*) – adir va qir hududlarida, dala va qishloq xo'jaligi yerlari yaqinida uchraydi. Erkakning qanot uzunligi 156–166 mm, urg'ochi 148–162 mm. Og'irligi erkak 350–600 g, urg'ochi 320–570 g. Qizil kitobga kiritilmagan.

Ularning tarqalishi vertikal zonallik va iqlim omillari bilan chambarchas bog'liq. Cho'l hududlarida (Qizilqum) turlar soni kamroq bo'lsa, tog' va adir mintaqalarida xilma-xillik yuqori. Ayniqsa, G'arbiy Tyan-Shan va Hisor tizmalari endemik va relikht shakllar bilan ajralib turadi.

Tovuqsimonlar tabiiy ekotizimlarda urug' va hasharotlar bilan oziqlanib, populyatsiyalar muvozanatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ayrim turlar (masalan, oddiy qirg'ovul va kekliklar) ovchilik va xo'jalik ahamiyatiga ega. Shu bilan birga, antropogen omillar — yerlarning o'zlashtirilishi, yaylov bosimi, noqonuniy ov qilish natijasida ayrim populyatsiyalar soni qisqarib bormoqda.

Shu bois tovuqsimonlarni muhofaza qilish, ularning tabiiy yashash joylarini saqlash va ilmiy monitoring olib borish dolzarb vazifalardan biridir. Respublikada qo'riqxonalar va milliy bog'lar (Chatqol biosfera qo'riqxonasi, Hisor qo'riqxonasi va boshqalar) bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Sirdaryo qirg'ovuli (*Phasianus colchicus turcestanicus*) Erkaklari yorqin, tovlanuvchan patlari va uzun dumi bilan ajralib turadi. Modasi esa tabiatda yashirinish (kamuflyaj) uchun xira-qo'ng'ir rangda bo'ladi.

Asosan daryo bo'yi to'qayzorlarida, qamishzorlarda va madaniy landshaftlar (bog'lar) chetida yashaydi. Ular o'troq qushlar bo'lib, qishda uzoqqa uchib ketmaydi.

Antropogen omillarning ta'siri Hozirgi kunda inson faoliyati tabiiy ekotizimlarga tobora kuchayib borayotgan bosim o'tkazmoqda va bu holat tovuqsimonlar populyatsiyasiga ham sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qirg'ovul, keklik va bedana kabi turlar yashash muhitining o'zgarishiga juda sezgir hisoblanadi

Eng muhim antropogen omillardan biri — tabiiy biotoplarning qisqarishi va degradatsiyasidir. Daryo vodiylaridagi to'qayzorlarning kesilishi, yangi qishloq xo'jaligi maydonlarining o'zlashtirilishi va yerlarning meliorativ o'zgarishi natijasida qirg'ovullarning tabiiy yashash joylari kamayib bormoqda. Bu esa ularning uya qurish va oziqlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalar, xususan pestitsid va gerbitsidlarning keng qo'llanilishi ham qushlarga salbiy ta'sir qiladi. Ushbu moddalar hasharotlar





sonini kamaytirib, oziqa bazasini qisqartiradi, shuningdek bevosita zaharlanish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa bedana kabi mayda qushlar bunday omillarga nisbatan sezgir bo'ladi.

Noqonuniy ovchilik va nazoratsiz ov qilish ham populyatsiyalarning kamayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Ayrim hududlarda ov me'yorlariga rioya qilinmasligi natijasida qushlarning soni tiklanishga ulgurmasdan kamayib ketmoqda

Bundan tashqari, infratuzilmaning rivojlanishi, yo'llar qurilishi, chorva mollari sonining ortishi ham tabiiy yashash muhitining buzilishiga sabab bo'ladi. Tog'li hududlarda yaylovlardan haddan tashqari foydalanish kekliklarning uya joylarini yo'qolishiga olib keladi.

Muhofaza choralari. Tovuqsimonlar populyatsiyasini saqlab qolish va tiklash uchun kompleks muhofaza choralari zarur. Eng avvalo, ularning tabiiy yashash muhitlarini asrab qolish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda to'qayzorlar, tog'li hududlar va boshqa muhim biotoplarni qo'riqlanadigan hududlar sifatida kengaytirish lozim.

Shuningdek, ayrim hududlarda qirg'ovul va boshqa turlarni sun'iy ko'paytirish va tabiiy muhitga qayta qo'yish amaliyoti samarali natija bermoqda. Bu usul populyatsiya sonini tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Ovchilik faoliyatini tartibga solish ham muhofaza choralarining muhim qismi hisoblanadi. Ov qilish muddatlari va me'yorlarini ilmiy asosda belgilash, noqonuniy ovchilikka qarshi qat'iy nazorat o'rnatish zarur.

Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish, kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish ham qushlarning yashab qolishiga yordam beradi. Ayniqsa, pestitsidlar o'rniga biologik himoya usullaridan foydalanish muhimdir. Aholining ekologik madaniyatini oshirish ham katta ahamiyatga ega. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borish orqali mahalliy aholi ushbu qushlarni asrashda faol ishtirok etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tovuqsimonlarni muhofaza qilish faqatgina alohida choralar bilan emas, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Bu esa O'zbekiston bioxilma-xilligini saqlash va ekotizimlar barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуназаров Б.Б., Вашетко Э.В., Лановенко Е.Н., Зиновьев С.А., Мухина Е.А., Мирзаев У.Т., Ходжаев А.Ф., Шерназаров Э. Редкие и исчезающие виды животных Узбекистана. Вып. 1. - Ташкент: ФАН, 1996. С. 74-76.
2. Akramova F.D., Azimov Zh.A. Birds of terrestrial ecosystems of Uzbekistan and their helminth fauna. - Tashkent: "Navruz", 2015.





3. Dadayev S., Saparov K. Umurtqalilar zoologiyasi. Darslik,-Toshkent: «Turon-Iqbol», 2019. -720 b.
4. 2. Бакаев С.Б. Экология и вопросы охраны Зеравшанского фазана в Бухарской области. // Охрана живой природы. Тезисы всесоюзной конф. молодых ученых. - М., 1983. С. 17-19.
5. Dementyev G.P., Gladkov N.A. Birds of the Soviet Union. Volume 4 (Galliformes). - Moscow: "Soviet Science", 1952.
6. Meklenburtsev R.N., Ostapenko M.M., Tretyakov G.P. Birds of Uzbekistan. Volume - Tashkent: "Fan", 1987. (Tovuqsimonlar bo'limi).
7. Uzbekistan Republic "Kizil Kitobi" : 2-wire. Hayvonot dunyosi. — Tashkent: "Chinor ENK", 2019.
8. Ўзбекистон Республикаси “Қизил китоби”. Тошкент, II-жилд. 2019. 374

